

# Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


22 dekabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish  
departamenti

## SQB va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-22 dekabr Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

### SQB va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,801% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,621% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,392% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- 2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,475% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 9,414% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 9,269% – 9,519% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,366% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,254% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,171-8,878% gacha o'zgarib turdi.

# SOFR va Euribor


## AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

### SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,66-4,51% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,75% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 3,66% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


### Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,002% (3 oylik) va 2,126% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




## O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **697,0** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **152,8** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 130** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib **11 996** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **7,04%** ni tashkil etdi.

## Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




22.12.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Asia Alliance bank**da qayd etilgan – **12 015** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 020–12 070** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **SQB** da qayd etilgan – **11 980** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **11 975 – 11 940** so'm atrofida bo'lgan.

## USD-RUB dinamikasi




### ➤ USD/RUB ishonch bilan o'smoqda

2025-yil 15–19-dekabr oralig'ida USD/RUB valyuta juftligi barqaror o'sish dinamikasini namoyish etdi. Hafta boshida dollar kursi 79,7 rubl atrofida ochilgan bo'lsa, qisqa muddatli tebranishlarga qaramay, keyingi kunlarda bosqichma-bosqich ko'tarildi. 16-dekabr kuni rublning qisqa muddatli mustahkamlanishi qayd etilib, kurs 79,9 darajasigacha tushdi, biroq 17-dekabrden boshlab milliy valyutaga bo'lgan bosim kuchaydi va kotirovkalar 80 rubl darajasidan yuqoriga chiqdi. 19-dekabrga kelib dollar 81,2 darajasiga yetib, hafta davomida mahalliy maksimumni yangiladi.

Mazkur harakatlar dollarga bo'lgan talab ustunligini va rublning zaiflashuvini ko'rsatmoqda. Bu holat, ehtimol, tashqi omillar hamda xatarli aktivlarga bo'lgan qiziqishning pasayishi bilan bog'liq. 80,0 darajasidan yuqorida mustahkamlanish "buqa" ssenariysini kuchaytiradi va qisqa muddatli istiqbolda USD/RUB juftligining yanada o'sish salohiyatini saqlab qolmoqda.

## RUB-YUAN dinamikasi




### ➤ Rublning yuanga nisbatan kursi barqaror

2025-yil 15–19-dekabr oralig'ida RUB/CNY valyuta juftligi barqaror va past volatillikka ega dinamikani namoyish etdi. Kurs aniq yo'nalishli harakatlarsiz 11,0–11,1 darajalari atrofida saqlanib qoldi.

16-dekabr kuni 11,0 dan 11,1 gacha bo'lgan kichik o'sish texnik xususiyatga ega bo'lib, keyingi rivojlanish bilan davom etmadi. Keyingi kunlarda juftlik yonlama konsolidatsiya bosqichiga o'tdi, bu esa talab va taklif muvozanatini hamda bozorda kuchli harakatlantiruvchi omillarning yo'qligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, RUB/CNY dinamikasi neytral sifatida baholanadi va joriy tebranish diapazoni saqlanib qolmoqda. Kursdagi sezilarli o'zgarishlar faqat pul-kredit siyosati yoki tashqi iqtisodiy kon'yunktura bilan bog'liq yangi fundamental omillar paydo bo'lgandagina yuz berishi mumkin.

## EUR-USD dinamikasi




### ➤ EUR/USD juftligida zaiflik saqlanib qolmoqda

2025-yil 15–19-dekabr kunlari oralig'ida EUR/USD valyuta juftligi mo'tadil pasayuvchi dinamikani namoyish etdi. Hafta boshida kurs 1,1768 darajasida ochildi, shundan so'ng yevro qisqa muddatga mustahkamlanib, 16-dekabr kuni 1,1803 darajasidagi maksimumga yetdi. Biroq ushbu darajadan yuqorida mustahkamlanib qolishning imkoni bo'lmadi.

17-dekabrden boshlab pasayish boshlandi va undan keyin juftlik mo'tadil tebranishlar bilan konsolidatsiya bosqichiga o'tdi. Haftaning 1,1728 darajasida yakunlanishi yevroga bo'lgan bosim kuchayganini hamda dollarning ustunligini tasdiqladi. 1,1800 darajasidan yuqorida ushlanib qola olmaslik "ayiq" kayfiyatlarini saqlab qolmoqda va 1,1700 atrofidagi qo'llab-quvvatlash darajasining navbatdagi sinovdan o'tkazilishi ehtimolini ko'rsatmoqda.

# Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi  
(bir untsiya uchun,  
AQSh dollarida)



- Oltin narxlarini 4 400 dollardan oshib, tarixiy maksimumni yangiladi

2025-yil 15–19-dekabr oralig'ida oltin bozori 1 troya unsiyasi uchun 4 300–4 340 dollar diapazonida mo'tadil volatillikni namoyish etdi. 17-dekabr kuni 4 340,8 dollargacha bo'lgan qisqa muddatli ko'tarilishdan so'ng kotirovkalar korreksiyaga uchradi va hafta yakunida 4 337,9 darajasida yopildi. Mazkur dinamika so'nggi tarixiy maksimumdan keyingi konsolidatsiya bosqichi davom etayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, investorlarning oltinga himoya (xavfsiz) aktiv sifatidagi barqaror qiziqishi saqlanib qolmoqda. Geosiyosiy keskinlik va dollarning zaiflashuvi fonida qimmatbaho metall bozorida huzur "xavfsiz boshpana" aktiv sifatida qabul qilinmoqda. Bu esa tashqi xatarlar saqlanib qolgan va taklif cheklangan sharoitda narxlarning keyingi o'sishi uchun asos yaratmoqda.


Brent nefti narxlarini dinamikasi  
(bir barrel uchun,  
AQSh dollarida)



- Jahon neft narxlarini bir barrel uchun 60 dollargacha pasaydi

2025-yil 15–19-dekabr oralig'ida Brent markali neft narxlarini mo'tadil volatillikni namoyish etdi. 15-dekabr kuni hafta boshida bir barrel uchun 60,56 dollar darajasida ochilgan kotirovkalar 16-dekabrda kelib 58,92 gacha pasaydi, shundan so'ng esa bosqichma-bosqich o'sish boshlandi. 19-dekabrda kelib neft narxi 60,47 dollar darajasiga yetib, deyarli hafta boshidagi ko'rsatkichlarga qaytdi. Mazkur dinamika so'nggi tebranishlardan keyingi qisqa muddatli konsolidatsiyani ko'rsatadi. Shu bilan birga, bozor huzur fundamental omillarga — jumladan, global talab, ishlab chiqarish hajmlari va geosiyosiy xatarlarning rivojiga — sezgir bo'lib qolmoqda. Joriy narx darajalari bozor ishtirokchilarida mo'tadil "buqa" kayfiyatini qo'llab-quvvatlamogda, biroq keyingi harakatlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va neft taklifi holatining uyg'unligiga bog'liq bo'ladi.

TTF gaz narxlarini dinamikasi  
(megavatt-soat uchun,  
AQSh dollarida)



- TTF gazi narxlarini mustahkamlanmogda

2025-yil 15–19-dekabr oralig'ida TTF gazi narxlarini dollar ifodasida mo'tadil o'sishni namoyish etdi. Hafta boshida kotirovkalar bir megavatt-soat uchun 32 dollar atrofida tebrangan bo'lsa, qisqa muddatga 31,5 dollar darajasigacha pasaydi. Biroq davrning ikkinchi yarmida narxlar o'suvchi harakatga o'tdi va 19-dekabr yakunlariga ko'ra bir megavatt-soat uchun 32,9 dollarga yetdi. Joriy dinamika mavsumiy talabning oshishi hamda taklif muvozanati bilan bog'liq xatarlar saqlanib qolayotgan sharoitda bozordagi taranglik kuchayganini aks ettirmogda. Narxlarning bir megavatt-soat uchun 32 dollar darajasidan yuqorida ushlanib turilishi qisqa muddatli istiqbolda kotirovkalarining yanada oshishi uchun shart-sharoit yaratmogda.

# Yangiliklar

## Deutsche Bank korporativ mijozlar uchun AI-Advisor platformasini ishga tushirdi

Deutsche Bank korporativ mijozlar uchun AI-Advisor platformasini ishga tushirdi. U avtomatik tarzda moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qiladi va xarajatlarni optimallashtirish strategiyalarini taklif qiladi. Bu bank sektorida samaradorlikni oshirish maqsadida sun'iy intellektni faol joriy etilayotganini ko'rsatadi.

## Germaniyaning raqamli banki N26 BaFin'dan yangi talablar oldi

Germaniyaning raqamli banki N26 mamlakat moliyaviy regulyatori — BaFin tomonidan kapital bo'yicha yangi talablar hamda ipoteka kreditlarini berishga vaqtinchalik taqiq bilan yuzlashdi. Regulyator mijozlar manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy barqarorlikni oshirish maqsadida neobanklar ustidan nazoratni kuchaytirdi.

## Barclays United Fintech'ga strategik investor sifatida qo'shildi

Barclays United Fintech'ga strategik investor bo'lib kirib, banklar va fintech-ekotizimlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi. Bu butun dunyo bo'ylab bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasini tezlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

## OTP Bank prezidenti Ilya Chijevskiy 2025 yilning eng yaxshi bank menejeri deb topildi

OTP Bank prezidenti Ilya Chijevskiy bankda amalga oshirilgan raqamli va operatsion transformatsiyalardagi muhim yutuqlari uchun Retail Finance Awards mukofoti doirasida 2025 yilning eng yaxshi bank menejeri deb e'tirof etildi.

